



TALABALARNING GRAFIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA
ELEKTRON RESURLAR TIZIMINING O'RNI

Bo'riboeva Dilraboxxon Norboy qizi

Guliston davlat universiteti Amaliy san'at va dizayn kafedrası o'qituvchisi

**РОЛЬ ЭЛЕКТРОННЫХ РЕСУРСНЫХ СИСТЕМ В РАЗВИТИИ ГРАФИЧЕСКОЙ
КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ**

Борибоева Дилрабохон Норбой кызы

*Гулистанский государственный университет Преподаватель кафедры
прикладного искусства и дизайна*

THE ROLE OF ELECTRONIC RESOURCE SYSTEMS IN DEVELOPING
STUDENTS' GRAPHIC COMPETENCE

Boriboyeva Dilrabokhon Norboy qizi

Guliston State University Teacher of the Department of Applied Arts and Design

Annotatsiya: Ushbu maqolada chizmachilik o'qituvchisining grafik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy asosi keltirilgan. Muammo yuzasidan bo'lajak chizmachilik o'qituvchisiga xos kompetentlik sifatлари, kasbiy pedagogik faoliyatidagi ahamiyatlari chet el pedagog-olimlarimizning izlanishlari taxlil qilingan. Taxlillar natijasida bo'lg'usi pedagoglarning grafik kompetentligini elektron resurslar tizimi orqali rivojlantirish haqida ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: chizmachilik, kompetensiya, kompetentlik, grafik kompetentlik, kasbiy kompetensiya, bilim, ko'nikma, malaka

Аннотация: В статье представлены научные основы развития графической компетентности учителя рисования. Проанализированы исследования отечественных и зарубежных ученых-педагогов по проблеме качества компетентности, присущих будущему учителю рисования, и их значимости в профессиональной педагогической деятельности. В результате анализа сделан научно обоснованный вывод относительно развития графической компетентности будущих учителей посредством электронной ресурсной системы.

Ключевые слова: рисунок, компетенция, компетентность, графическая компетентность, профессиональная компетентность, знания, умения, навыки, квалификация

Abstract: This article presents the scientific basis for the development of graphic competence of a drawing teacher. The research of our foreign pedagogical scientists on the problem of the qualities of competence inherent in a future drawing teacher, their significance in professional pedagogical activity, is



analyzed. As a result of the analysis, a scientifically sound idea was developed about the development of graphic competence of future teachers through an electronic resource system.

Keywords: drawing, competence, competence, graphic competence, professional competence, knowledge, skills, qualification

Ta'limda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari o'qituvchi va talabning mustaqil erkin fikrlash doirasini batamom o'zgartiradi, chunki ular o'zlari uchun zarur axborotlarni birgalikda izlashga harakat qiladilar. U shaxsga yo'naltirilgan ta'limning aspektlarini qayta ko'rib chiqish muammosini ilmiy jihatdan asoslashni bir vaqtga pedagogika, didaktika va metodika kabi tadqiqotlarda o'rganish muammosini qo'ydi.

Axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llash: talabalarga bir xil talabning qo'yilishi; shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida ishlash imkoniyatini yaratilishi; malakali o'qituvchilar tajribalarini ommaviylashtirishni ta'minlash uchun keng imkoniyatlarni ochadi.

Respublikamiz olimlaridan M.E.Mamarajabovning tadqiqot ishida "Talabalar bilimni baholash tizimi, o'qitish shakllari va usullarini ishlab chiqish va raqamlashtirishning o'z-o'zidan halokatli oqibatlarini sifatida qayd etilgan: yuqori professional kompetensiyalarga ega bo'lgan o'qituvchilarning ishdan bo'shatilishi, lekin raqamli kompetensiyalarni yaxshi bilishi, axborot va ekranning haddan tashqari yuklanishi, kognitiv buzilishlarning kuchayishi, shaxslararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirish nuqtayi nazaridan ta'lim muhiti imkoniyatlarining pasayishi raqamlashtirish cheklovlarini yengish institutsional tizimni yaratish orqali amalga oshiriladi" [1].

Elektron resurslar tizimi elektron ta'lim jarayonini tashkil etishning asosiy vositasi hisoblanadi. Elektron resurslar tizimi jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning muhimligidan kelib chiqib, ta'lim jarayonini elektron resurslar orqali faollashtirish hamda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan o'quv kurslarini loyihalashtirishning samarali usullarini ishlab chiqish lozim.

An'anaviy ta'limga nisbatan elektron resurslar tizimi muhitidan foydalanish kasbiy kompetentlikning kognitiv, amaliy-faoliyatli, motivatsion-qadriyatli va reflektiv-baholash kabi komponentlarini rivojlantirish darajasini statistik jihatdan sezilarli darajada oshirishga olib keladi.

Mazkur yondashuvning samaradorligi aynan shu omillar bilan asoslanadi. Grafik tizimlarning imkoniyatlarini kompetensiya indikatorlariga moslashtirish ta'lim jarayonini elektron resurslar orqali faollashtirish va talabning individual o'sish trayektoriyasini monitoring qilish imkonini beradi.

Elektron resurslar tizimidan foydalanib talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'ziga xos kasbiy kontekst komponentlari mavjud.

Tizimning maqsadli komponenti fanlararo integratsion o'qitish maqsadlarining kasbiy kompetensiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilganligini aks ettiradi.



Elektron o'quv kurslarining jarayon komponenti o'zida talabaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, mustaqil ta'limni tashkil etish va professional faoliyatga yo'naltirilgan usullarni tatbiq etish imkoniyatini mujassam etadi.

Ushbu komponent o'quvchi tayyorgarligini oshirishga qaratilgan o'qitish vositalari, shakllari hamda metodlarini yagona tizimga birlashtiradi. Baholash komponenti esa kasbiy kompetentlikning funksional jihatlari o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda yaratilgan diagnostik materiallarni o'z ichiga oladi. Bu materiallar elektron resurslar tizimidan foydalangan holda ta'lim jarayonida talabaning professional kompetentlik darajasining shakllanish dinamikasini obyektiv ravishda baholashga xizmat qiladi. [2].

Elektron resurslar tizimi asosidagi o'quv kursida talabalarning grafik kompetentligi rivojlantirish uchun "elektron seminar" elementi orqali amalga oshiriladigan mustaqil ta'lim vazifalari ishlab chiqiladi.

Topshiriqlarni bajarish uchun mavjud elektron resurslar tizimi ta'minoti turli xil bo'lib, quyidagi ish turlarini bajarish imkonini beradi: tadqiqotlar olib borish, grafikli loyihalarni ishlab chiqish va tahlil qilish, modellashtirish va vizuallashtirish tajribalarini o'tkazish, ma'lumotlarni tahlil qilish, qayta ishlash va yaratilgan grafik mahsulotni muhokama qilish.

Elektron resurslar tizimi uchun chizma-grafikli ko'rgazmali vositalar yaratish uchun keng tarqalgan amaliy dasturiy paketlar mavjud. Ulardan ba'zilari to'g'risida ma'lumot keltiramiz:

□ AutoCAD dasturi mukammal va ommabop avtomatlashtirilgan dastur bo'lib, u har qanday turdagi sxema va chizmalarni yuqori aniqlikda, sifatli bajaradi. Shuningdek, bu dasturdan foydalanuvchilarning ijodiy imkoniyatlarini to'la amalga oshirishga yordam beradi.

Shu sababli, millionlab loyihachi mutaxassislar, olimlar, injener-texniklar va talabalar loyihalash ishlarini bajarishda tizimdan foydalanishdi [3]. AutoCAD dasturi talabalarga grafik va chizmalarni chizishda tayyor modellardan foydalanish hamda o'zlarining loyihalarini amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ko'rib chiqilgan amaliy dasturiy paketlarni ta'lim jarayonida va bo'lajak kasbiy faoliyatda qo'llash talabalar grafik kompetentligining zaruriy komponentlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Elektron resurslar tizimi orqali CAD dasturlarida teskari aloqani ta'minlashni yo'lga qo'yilishi, talabaning loyihalash faoliyatini obyektiv baholash va uning grafik kompetensiya ko'rsatkichlarini dinamik monitoring qilishga xizmat qiladi.

Elektron resurslar tizimi muhitida ta'lim oluvchilarning olgan bilimlari, tavsiya etilgan o'quv materialining o'zlashtirilishini nazorat qilish imkoniyati alohida ahamiyatga ega.

Elektron resurslar tizimining avtomatlashtirilgan nazorat funksiyasi talabalarga bir necha urinishlarga imkoniyat beradi va oxirgi urinishni saqlab qoladi. Talabalar har doim birinchi urinishdan keyin o'z natijasini yaxshilash uchun harakat qiladi.

Avtomatlashtirilgan nazorat tizimi natijalariga asosan har bir talabaga individual yondashuv asosida konsultatsiyalar tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday



mashg'ulotlarni o'tkazish uchun ta'sirchanlik omillariga vizual aniqlikni keltirgan holda elektron resurslar tizimi muhitida har bir talaba uchun maxsus jadval ishlab chiqiladi.

Agar talabalarning vizual aniqligi kuchli bo'lsa, grafik kompetentligi yuqori bo'lsa, u holda o'qituvchi bilan maslahatlashmasdan keyingi mashg'ulotlarga o'tishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamarajabov M.E. Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish. Doktorlik dissertatsiya avtoreferati. T.: 2022. - 78 b.

2. Захарова И. Г. Информационные технологии в образовании. - М.: Академия, 2005. - 192 с.

3. Петров М., Молочков К. Компьютерная графика. Учебник. - Питер, 2002. - 736 с.

4. Yadgarov N.D. Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: pedagogika fanlari doktori (DSc). ... diss. avtoref. - T., 2023.

5. Жилич С.В., Галенюк Г.А. Эффективность применения интерактивных методов обучения на занятиях по инженерной графике // Инновационные технологии в инженерной графике: проблемы и перспективы. Сбор.трудов междунар. научю-практ. конф. – Новосибирск: Брест, 2018. – С. 124-125.

6. Norboy, Boriboyeva Dilrabakhon. "DEVELOPMENT OF STUDENTS'GRAPHIC COMPETENCE IN TRAINING ENGINEERING GRAPHICS." International Journal of Pedagogics 3.12 (2023): 145-147.

7. Alimjanovna Y. S. TOOLS AND CRITERIA OF COMPOSITION IN THE CREATIVE PROCESS OF FINE ARTS CLASSES OF UNIVERSITY SCHOOLS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2024. – Т. 5. – №. 02. – С. 48-58.

8. KILIÇ ATEŞ S., BERİKBAEV A. A. Pedagogical competencies in art education and the impact of educational reforms: The case of Uzbekista //Balikesir University Journal of Social Sciences Institute. – 2025. – Т. 28. – №. 53.

9. Bo'riboyeva, D. N. "Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishning innovatsion usuli." Buxoro davlat universitetining "Pedagogik mahorat" ilmiy nazariy va metodik jurnali 2 (2023).

10.Usmanov Botir Allaberdiyevich. (2025). TASVIRIY SAN'ATDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR: ZAMONAVIY YONDASHUV VA YANGI IMKONIYATLAR. IQRO INDEXING, 16(01), 374-378.

11. Norboy, Boriboyeva Dilrabakhon. "DEVELOPMENT OF STUDENTS'GRAPHIC COMPETENCE USING INTERACTIVE METHODS." CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS 5.02 (2024): 44-47.



12.Bo'riboeva, D. N. "Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda zamonaviy grafik dasturlardan foydalanish metodikasi." PEDAGOGIKA Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy–nazariy va metodik jurnal (2023).

13.Dilrabakhon, Boriboyeva. "Development Of Students' Graphic Competence in Training Engineering Graphics." Journal of Pedagogical Inventions and Practices 26 (2023): 19-20.

14.Yakubova, Nafisa Odiljanovna. "THE ROLE AND IMPORTANCE OF GRAPHIC MODES IN STUDENTS-INCREASING THE IMAGINATION OF CUTTING." Актуальные научные исследования в современном мире 4-2 (2021): 268-272.